SHAXS RIVOJLANISHINING TURLI BOSQICHLARIDA REFLEKSIVLIKNING XUSUSIYATLARI

Xalilova Nargiza Ikromalievna
Renessans ta’lim universiteti Pedagogika va psixologiya departamenti professori, psixologiya fanlari doktori

Ma’lumki, refleksiya atamasiga doir izohlar uchun umumiy aloqador tushuncha o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi baholash, o‘zini o‘zi kuzatish, o‘zining holatini anglash va shu kabilar hisoblanadi. Ta’kidlash joizki, mazkur jaryonlarning shakllanishi rivojlanish psixologiyasi nuqtai nazaridan 7-8 yoshda yuz bera boshlaydi.

Inson psixik rivojlanishi, uning shaxs sifatida shakllanishi o‘zini o‘zi anglashining, ya’ni o‘zini jismoniy, ma’naviy hamda ijtimoiy mavjudot sifatida anglashining qaror topishi bilan bog‘liq.O‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi har bir bolada o‘ziga xos tarzda kechadi. Biroq, barcha bolalarda, odatda, hayotining birinchi yili oxiriga kelib, o‘zini o‘zi anglashning paydo bo‘lganini tasdiqlovchi belgilar kuzatiladi, ya’ni bola o‘zini, o‘z tanasini uni o‘rab turgan fazodan ajrata boshlaydi. O‘zini o‘zi anglashning keyingi rivojlanishi bolaning o‘z xohishlar va umuman faoliyati motivlarini anglashi bilan bog‘liq bo‘ladi. O‘z faoliyatining motivlarini anglashi, bolaga o‘zini o‘zi anglashning keyingi bosqichiga o‘tishga, ya’ni o‘z harakatlaridan ajrata olishga yordam beradi. Dastlab bola o‘zini faoliyat sub’ekti sifatida anglaydi.

Ilk bolalik davri o‘zini o‘zi anglash rivojlanishidagi muhim bosqich bo‘lib hisoblanadi. Chunki bu davr bolada avvallari predmetga mustahkam biriktirib qo‘ygan harakatni asta-sekin o‘zidan ajrata boshlaydi. Bu hodisa birdan, o‘z-o‘zidan ro‘yobga chiqmaydi. Uning amalga oshishiga sabab bolaning avvalgi predmetli harakatini yangi sharoitlarda bajarilishi va uni boshqa predmetlarga ko‘chirishidir.

Psixolog L.I.Bojovichning ta’kidlashicha, hatto ilk bolalik davrining oxiriga kelib paydo bo‘luvchi “Men” ini ro‘yobga chiqarishini namoyon qilish ehtiyoji ushbu davrda yuzaga keluvchi eng markaziy tuzilma yangi tuzilma, deb hisoblashadi. Bu tuzilma ketidan paydo bo‘luvchi tuzilmalar orasida o‘z-o‘ziga baho berishning yuzaga kelishi bolaning shaxs sifatida rivojlanishida o‘ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs shakllanishining dastlabki bosqichlarida, ya’ni ilk bolalik davrining oxiri va bog‘cha yoshining boshidagi o‘ziga o‘zi baho berishning genezisida bolaning kattalar bilan bo‘lgan muloqoti hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ladi. Bola o‘zining imkoniyatlari haqida adekvat bilishga ega bo‘lmaganligi tufayli kattalarning unga bergan bahosini qabul qiladi. Boshqacha qilib aytganda, bola o‘zini kattalar orqali ularning bola haqidagi fikri orqali baholaydi. Bola bu davrda

o‘ziga o‘zi baho berishda to‘laligicha kattalarning fikriga suyanadi. O‘zi haqidagi mustaqil tasavvur elementlari esa biroz keyinroq paydo bo‘ladi.

Bog‘cha yosh davrida o‘ziga o‘zi baho berish emotsional xarakterga ega bo‘ladi. Bolaning boshqalarga beradigan bahosi ham shunday xususiyatga ega bo‘ladi. Bola uni o‘rab turgan kattalardan qaysi biriga ishonchni his etsa, mehri tovlansa, o‘sha kishiga ijobiy baho beradi. Katta bog‘cha yoshidagi bolalar ularni o‘rab turgan kattalarning ichki olamiga baho berishga harakat qiladilar. O‘rta va kichik bog‘cha yoshidagi bolalardan farqli ravishda kattalarning ichki olamiga anchagina chuqur va differensiallashgan baho beradilar. Bog‘cha yoshining oxiriga kelib, bolani atrofdagilarga beradigan bahosi ancha chuqur, to‘liq detallashgan va kengaytirilgan tus ola boshlaydi.

Bu o‘zgarishlar shu bilan tushuntiriladiki, katta bog‘cha yoshidagi bolalarda odamlarning ichki olamiga qiziqish ortib boradi, ular baho berishda muhim bo‘lgan mezonlarni o‘zlashtirib boradilar, tafakkur va nutqlari rivojlanib boradi.

Maktabgacha bo‘lgan davrda o‘zini o‘zi anglash taraqqiyotining muayyan darajasi bolaning maktabdagi ta’limiga tayyorligi ko‘rsatkichlaridan biridir. Bu davrda bolada o‘zini ijtimoiy mavjud deb hisoblash vujudga keladi. O‘zini o‘zi anglash rivojlanishining bu darajasi o‘ziga xos shaxsiy yangi tuzilma – o‘quvchi ichki pozitsiyasining tarkib topishi bilan bevosita bog‘langan. O‘quvchi holatiga intilish bola shaxsini tavsiflaydi, uning xulq-atvori, xatti-harakati va uning voqelikka hamda o‘z-o‘ziga bo‘lgan munosabat tizimini belgilaydi.

O‘quv faoliyatida bolaning o‘z-o‘zini bilish amalga oshiriladi. U atrofidagilar tomonidan baholanadi va shuning uchun o‘quvchi ular o‘rtasidagi o‘rnini belgilaydi. Endi o‘quv faoliyatida bola o‘zini biladi, unda o‘zi haqida tasavvurlar, o‘z-o‘zini baholash tarkib topadi. O‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini o‘zi boshqarish ko‘nikmalari shakllanadi.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, o‘zi haqidagi tasavvurlar o‘ziga bo‘lgan munosabatlar, ya’ni o‘zini o‘zi baholash bilan uzviy bog‘langan. O‘zi haqidagi tasavvurlarning shakllanish darajasiga ko‘ra bolalar 3 guruhga bo‘linadi.

1-guruhga shunday o‘quvchilar kiradiki, ularning o‘zlari haqidagi tasavvurlari adekvat va barqarordir. Bu guruhga kiruvchi bolalar o‘z xatti-harakatlarini tahlil qilishi, bu xatti-harakat motivlarini ajratish, o‘zi haqida o‘ylash bilan tavsiflanadi.

O‘quvchilarning 2-guruhi shu bilan tavsiflanadiki, uning a’zolarini o‘zlari haqidagi tasavvurlari beqaror va adekvat emas. Bu o‘quvchilarda o‘zlaridagi muhim sifatlarni ajratib ko‘rsatish, o‘z xatti-harakatini tahlil qilish yetarli emas. Faqat ba’zi hollardagina bu guruhga kiruvchi bolalar o‘zlarini adekvat baholashlari mumkin.

3-guruhga o‘quvchilar uchun xarakterli narsa ularning o‘zlari haqidagi tasavvurlari ularga boshqalar, ayniqsa, kattalar tomonidan berilgan tavsifnomadan iborat. Bu bolalarning o‘zi haqidagi tasavvurlari rivojlanishi past darajada.

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarida o‘zini o‘zi baholashning barcha turlari adekvat – barqaror, yuqori – barqaror, beqaror (yuqori yoki past).

Adekvat o‘zini o‘zi baholashga ega bo‘lgan bolalar – faol, tetik, topqir, xushmuomala bo‘ladilar, mag‘rurlik, o‘ziga haddan ortiq ishonish kabi shaxsiy sifatlar o‘zini o‘zi yuqori baholovchi bolalarda yengil shakllanadi [2].

Ta’kidlash joizki, kichik maktab yoshida refleksiv qobiliyat yangi sifatlar bilan yanada kengayib boradi. Shuningdek, o‘zini shaxs sifatida anglash ehtiyojining tarkib topishidan iboratdir. Boshqa yosh davrlaridan farqli ravishda o‘smirlik davrida o‘z-o‘ziga nisbatan, o‘zining ichki ruhiy hayotiga, o‘z shaxsining sifatlariga qiziqish yuzaga keladi.

O‘smirlik davri o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi uchun faol davrdir. Uning rivojlanish vositasi esa shaxsiy refleksiyadir. O‘smir o‘zini o‘zi anglashini yangi material bilan boyitish orqali o‘zini o‘rganishni chuqurlashtirib boradi. U o‘zining shaxs xususiyatlari, atrofdagilar bilan munosabati, imkoniyat va intilishlari, kuchli va kuchsiz tomonlarini o‘rganib boradi. Refleksiya kelajak va o‘tmishni bir-biri bilan bog‘laydi, bolalikdagi kattalik hayoti haqidagi kutishlarini taqqoslab ko‘radilar. Refleksiyaning mazmunli rejasi juda keng bo‘lib, o‘smir atrof-olamni, boshqa insonlarni o‘zini o‘zi va shaxsiy refleksiyasini tahlil qiladi. Refleksiyaning muhim xususiyati uning boy emotsionalligidir. Tez o‘zgarayotgan tashqi ko‘rinish, o‘zini boshqalar bilan idrok qilish, o‘quv faoliyatidagi muvaffaqiyat va qobiliyatlar doimo refleksiyaning fokusida bo‘ladi hamda kuchli kechinmalarni vujudga keltiradi, natijada ularning o‘zi ham refleksiyalanadi.

O‘smirlik davri refleksiyasining yana bir muhim xususiyati uning erkin assotsiatsiyalanishidir. O‘smir o‘zining ruhiy kechinmalari va tashqi vaziyat ta’sirida turli yo‘nalishlardan kelayotgan fikrlari bilan band bo‘ladi. Biroq, refleksiyaning markazida uning o‘zi, ya’ni shaxsi turadi. Aynan refleksiyada o‘zini o‘zi identifikatsiyalash ehtiyojini qondiradi, uni hammadan ko‘proq o‘zining “Men”i qiziqtiradi. O‘smir “Men”ini tushunishga harakat qiladi, “Men kimman?” degan savolga javob topishi mazkur davrning eng asosiy muammosi hisoblanadi.

Ta’kidlash joizki, L.I.Bojovichning fikriga ko‘ra, bu davrda o‘zini faqatgina o‘zigagina xos bo‘lgan, boshqalardan ajralib turuvchi sifatlarga ega shaxs sifatida anglash ehtiyojlari va qobiliyatlari paydo bo‘lishi bilan tavsiflanadigan o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichi yuzaga keladi. Mazkur davr o‘smir shaxsida o‘zini o‘zi namoyon qilishi va o‘zini o‘zi tarbiyalashga intilishi kuchayadi [1].

Shuningdek, L.I.Bojovich o‘smirlarda aynan refleksiyaning rivojlantirilishi o‘zini o‘zi anglashning yangi bosqichga ko‘tarilishiga olib keladi deb hisoblaydi. Aytish mumkinki, o‘smirlik davrida refleksiya shiddat bilan rivojlanadi, bu esa uning o‘zini bilish jarayonlarida (tafakkur, xotira, diqqat va boshqalar) insonlar bilan muloqot va xulqida o‘zining shaxsiy xususiyatlarida namoyon bo‘luvchi sifatida tadqiq etilishiga imkon beradi.

Ma’lumki, A.Buzeman o‘z tadqiqotlarida L.S.Vigotskiy fikriga asoslanib, o‘smirlik davrida refleksiya rivojlanishini xarakterlovchi 3 ta holat mavjudligini qayd etadi:

Birinchidan, refleksiya va unga asoslangan o‘zini o‘zi anglash o‘smir shaxsida rivojlanishiga qaratilgan bo‘ladi. O‘zini o‘zi anglash nafaqat anglash fenomeni sifatida olinadi balki, kengroq tarzda biologik va ijtimoiy o‘zlashtirilgan

variant sifatida ko‘riladi. A.Buzemanning ta’kidlashicha, refleksiya ildizini tirik olamdan chuqur izlash kerak, uning biologik asoslari hamma joyda nafaqat tashqi olamni aks ettirishi, balki organizmning o‘zini o‘zi aks ettirishi bilan namoyon bo‘ladi.

Ikkinchidan, A.Buzeman tomonidan o‘smir o‘zini o‘zi anglashining rivojlanganligi bilan ijtimoiy rivojlanish o‘rtasida aloqa mavjudligi alohida qayd etiladi. Uning fikrlariga ko‘ra, o‘zini o‘zi anglashning rivojlanishi madaniy muhit uning ruhiy hayotining qaysidir tomoni bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin.

Uchinchidan, o‘zini o‘zi anglash tahlil ostiga olinmaydigan qandaydir metafizik mavjudlik sifatida emas, balki u refleksiyani o‘zi tomonidan sub’ektga o‘zgartiruvchi obraz sifatida ta’sir ko‘rsatish mumkinligiga e’tibor qaratishiga chaqiradi [4].

Refleksiya yordamida shaxsda o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish tajribasi yuzaga kela boshlaydi. Bu qadriyatli fikrlash jarayoni bilan bevosita bog‘liq sanaladi. Shuningdek, u shaxsni tashqi shart-sharoitlarga moslashishga yordam beradi. Asosiysi psixikaning boshqa imkoniyatlaridan samarali foydalanish uchun shart-sharoitlarni ham yaratib beradi. O‘smirlik davrida shaxs o‘z olamiga sho‘ng‘ib ketishi natijasida o‘z fikrlari, hissiyotlari va xatti-harakatlarini o‘ylashdan zavq oladi. O‘smir o‘zgalar bilan munosabat va muloqot qilish natijasida refleksiyani amalga oshiradi. Unda atrofdagi hodisa fikrlarni qabul qilish yoki qilmaslikka nisbatan ichki diolog yuzaga keladi. U bu kabi fikr va qarashlarni inkor etadi yoki qabul qiladi [3].

Xulosa qilib aytganda, refleksiya o‘smir hayotida katta ahamiyatga ega bo‘lib, o‘zini o‘zi anglash, o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘zini ichki dunyosini rivojlantirishga yordam beradi. Shu bilan birga, shaxsni muloqotchan, ijtimoiy faol bo‘lishida ham refleksiya ahamiyatlidir. Refleksiyasi rivojlangan o‘smir shaxsini o‘z oldiga ijtimoiy ahamiyatga ega maqsadlarni qo‘ya olishi va o‘z maqsadlariga erishish yo‘llarini topishiga qodirdir. Ko‘p hollarda shaxs atrof-muhitni anglashiga bo‘lgan qobiliyat va ijtimoiy qadriyatlarni anglay olish xususiyati muloqot va faol hayotda muhim axamiyatlidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Божович Л.И. Этапы формирования личности в онтогенезе // Вопросы психологии 1979, №4

2. Жалилова С.Х. Ёш даврлари психологияси, маъузалар матни. Тошкент – 2016 й., 106-107-бетлар

3. Мудрик А.В. Время поисков и решений, или старшеклассникам о них самих.- М.,1989

4. Шаров А.С. Ограниченный человек: значимость, активность, рефлексия: монография Омск: Издательство ОМТПУ 2000 .